

SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), birlikda






Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **11 401** tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **2 701** mingtaga yoki **19,2 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga **17,7** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yil yanvar- martida **663** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **13,9 %** ga kam demakdir.

2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni jami **11 401** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **663** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida **2 863** tani yoki jamiga nisbatan **25,1 %** ni tashkil etdi.

1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati


Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2023- yil yanvar- mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatan **17,7** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **3,4** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **29,5** birlik, Yangiyer shahrida **17,3** birlik, Shirin shahrida **15,5** birlik, Oqoltin tumanida **15,5** birlik, Mirzaobod tumanida **13,6** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori
ko'rsatkich

Guliston shahar
– 29,5 birlik.

O'rtacha
ko'rsatkich

Sardoba tumani
– 11,9 birlik.

Eng past
ko'rsatkich

Xovos tumani
– 6,3 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston tumanida **29,5** birlik, Yangiyer shahrida **17,3** birlik, Shirin shahrida **15,5** birlik, Oqoltin tumanida **14,7** birlik, Mirzaobod tumanida **13,6** birlik, Sardoba tumanida **11,9** birlik, Sayxunobod tumanida **11,4** birlik, Guliston tumanida **11,2** birlik, Sirdaryo tumanida **9,9** birlik kuzatildi.

2023- yil yanvar- mart oylarida har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Guliston
shahar
29,5

Yangiyer
shahar
17,3

Shirin
shahar
15,5

Oqoltin
tumani
14,7

Mirzaobod
tumani
13,6

Sardoba
tumani
11,9

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

2022- y.

2023- y.

139	Guliston sh.	121
143	Sardoba	115
112	Oqoltin	99
53	Sayxunobod	71
95	Sirdaryo	71
51	Mirzaobod	51
50	Boyovut	35
26	Xovos	34
48	Guliston	33
33	Yangiyer sh.	24
14	Shirin sh.	9

2023- yil yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri **18,3 %**, Sardoba **17,3 %**, Oqoltin **14,9 %**, Sayxunobod **10,7 %**, Sirdaryo **10,7 %**, Mirzaobod **7,7 %**, Boyovut **5,3 %**, hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022- 2023- yil yanvar- mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yil yanvar- mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar qishloq xo'jaligi sohasida **296** ta, savdoda **196** ta hamda sanoatda **59** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahrida **121** ta, Sardoba tumanida **115** ta hamda Oqoltin tumanida **99** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019- 2023- yil yanvar- mart oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida, Sirdaryo viloyatida 2019-2023- yil yanvar- mart oylari davomida jami **3 920** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **1 410** (yoki **36,0 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – **931** ta (yoki **23,8 %**), sanoat sohasida – **661** ta (yoki **16,9 %**), xizmatlar sohasida – **636** ta (yoki **16,2 %**) va qurilish sohasida – **282** ta (yoki **7,2 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yil yanvar- mart oylarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoq-dan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	358	18,2
Paxta yetishtirish	342	17,4
Sabzavotlar etishtirish	241	12,3
Dehqonchilik sohasida boshqa xizmatlar ko‘rsatish	174	8,9
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	121	6,2
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish	160	19,0
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	58	6,9
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	50	5,9
Beton, qurilish gipsi va tsementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish	43	5,1
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	35	4,2
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	96	29,2
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	88	26,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	44	13,6
Yo‘llar va shosselar qurish	19	5,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	17	5,2
Savdo		
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	369	20,4
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	344	19,1
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	162	9,0
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	94	5,2
Ixtisoslashgan do‘konlarda farmatsevtika tovarlari chakana savdosi	68	3,8
Xizmatlar sohasi		
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	106	12,1
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	92	10,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	91	10,4
Avtomobil transportida yuk tashish	66	7,5
Ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat	33	3,8

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilning I- choragida eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashmagan ulgurji savdo yo'nalishida **369 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 5- yilning I-choragida tashkil etilgan korxonalarining **20,4 %** ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

2022- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar- mart oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2023- yil yanvar- mart oylarida YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **54,8 %** ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **2,0** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **99,2 %** ni, yo'lovchi aylanmasida **98,5 %** ni, yo'lovchi tashishda **97,9 %** ni, savdoda **95,7 %** ni, investitsiyada **93,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati




2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yil yanvar- mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, *mlrd. so'm*



2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 202,7** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumani (**258,9** mlrd. so'm), Shirin shahar (**229,8** mlrd. so'm), Guliston shahar (**161,2** mlrd. so'm), Yangiyer shahar (**128,7** mlrd. so'm) va Sayxunobod (**109,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Oqoltin tumanida (**31,1** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar- mart oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yil yanvar- mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **31,3 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sayxunobod tumani (**89,7 %**), Yangiyer shahar (**89,5 %**), Sardoba tumani (**81,2 %**), Xovos tumani (**70,4 %**), Guliston shahar (**62,5 %**), Guliston tumani (**53,7 %**), Sirdaryo tumani (**41,5 %**), Oqoltin tumani (**40,6 %**), Boyovut (**38,7 %**) va Mirzaobod (**29,9 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yil yanvar- mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2018- 2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **519,2** million so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **81,9 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan **89,5 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri (**209,8** mlrd. so'm), Mirzaobod (**77,4** mlrd. so'm), Sirdaryo (**54,0** mlrd. so'm), Guliston tumanlari (**38,3** mlrd. so'm), Yangiyer shahar (**35,6** mlrd. so'm), Xovos (**30,2** mlrd. so'm) hamda Boyovut (**20,9** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3 861,8** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **90,0 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **139,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Boyovut tumani (**3 193,9** mlrd. so'm), Guliston shahar (**165,7** mlrd. so'm), Xovos tumani (**149,8** mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (**94,1** mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (**88,1** mlrd. so'm), Yangiyer shahar (**53,7** mlrd. so'm) hamda Guliston (**46,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi (mlrd. so'm) va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2019- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 1 267,0 mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining 98,4 % ni tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2022- yilga nisbatan 103,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Boyovut (209,4 mlrd. so‘m), Sayxunobod (178,3 mlrd. so‘m), Guliston (163,7 mlrd. so‘m), Sardoba (158,5 mlrd. so‘m), Sirdaryo (157,3 mlrd. so‘m) hamda Mirzaobod (128,0 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2019- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yil yanvar- mart oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati


2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **962,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,7 %** ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **101,3 %** ni tashkil qildi.

2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yil yanvar- mart oyida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm



2018-2023- yil yanvar- mart oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahar (**366,3** mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (**193,1** mlrd. so'm), Yangiyer shahar (**94,7** mlrd. so'm), Mirzaobod (**72,5** mlrd. so'm), Guliston (**49,5** mlrd. so'm) va Boyovut (**44,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yil yanvar- mart oyida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **674,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **50,1** % ni tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **103,1** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Guliston shahar (187,0 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (128,7 mlrd. so'm), Yangiyer shahar (78,8 mlrd. so'm), Mirzaobod (45,0 mlrd. so'm), Boyovut (45,0 mlrd. so'm), Xovos (42,0 mlrd. so'm) va Guliston (39,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati


2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yil yanvar- mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **70,6** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **76,8** % ni tashkil etdi.


2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2023- yil yanvar- mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yangiyer **100,0** %, Shirin shahrlarida **100,0** %, Xovos **99,9** %, Sayxunobod **99,9** %, Sardoba **98,8** %, Oqoltin **87,1** %, Boyovut tumanlari **67,7** % va Guliston shahar **62,5** %, eng past ko'rsatkich Guliston tumanida **0,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2018- 2023- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yil yanvar- mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **93 057,3** ming. AQSH dollarini yoki jami importning **75,6** % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da


2023- yil yanvar- mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiyer shahar **100,0** %, Xovos **100,0** %, Sayxunobod **100,0** %, Oqoltin **100,0** %, Guliston **100,0** %, Sardoba **100,0** % ni tumanlarida tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda



Yuk
aylanmasida



Yo'lovchi
tashishda



Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yil yanvar- mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **84,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,3 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar- mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **78,7 %** ni tashkil etgan bo'lib.

2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,8 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar- mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,9 %** ni tashkil etib,


2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,9 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar- mart oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,5 %** ni tashkil etib.

2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **557** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **150 (26,9 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **338 (60,7 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **69 (12,4%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **50,7 % (223 ta)**, xizmatlar sohasida – **28,2 % (124 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **18,4 % (81 ta)**, sanoatda – **16,6 % (73 ta)**, qurilishda – **12,7 % (56 ta)** ni tashkil etdi.

2023- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (146 ta), Sirdaryo (76 ta), Boyovut tumanlari (61 ta), Yangiyer shahar (49 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **45,3 %** ni, xizmatlar sohasida – **26,0 %** ni, sanoatda – **12,7 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo – **39,9 %** ni, xizmatlar sohasida – **21,6 %** ni, xizmatlar sohasida – **21,6 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **19,2 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **29,0 %** ni, sanoat sohasida – **23,2 %** ni, qurilish sohasida – **20,3 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **40,8 %** ni, xizmatlar sohasida – **21,3 %** ni, sanoat sohasida – **16,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **39,5 %** ni, xizmatlar sohasida – **23,2 %** ni, qishloq xo'jaligi – **19,2 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **36,8 %** ni, sanoat – **21,0 %** ni, xizmatlar sohasida – **21,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	43,6	49,1	7,3
Band bo'lganlar soni	22,8	69,5	7,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	39,6	50,8	9,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	27,4	58,4	14,2
Raqobat muhiti	43,6	49,1	7,3

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	50,6	46,1	3,3
Band bo'lganlar soni	33,8	63,5	2,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	45,6	51,2	3,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	39,5	56,7	3,8
Raqobat muhiti	48,8	48,8	2,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli